



## O'ZBEK TILIDAGI BIZNES VA TIJORAT TERMINLARNING DERIVATSION O'ZIGA XOSLIKLAR

Abdurazzakova Dinara Adilbekovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353609>

### ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21<sup>st</sup> May 2026

Published: 22<sup>nd</sup> May 2026

#### KEYWORDS

*biznes terminlari, tijorat terminlari, terminologiya, kompozitsiya, o'zlashma so'zlar, o'zbek tili, derivatsiya, affiksatsiya, abbreviatsiya, iqtisodiy leksika*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek tilidagi biznes va tijorat terminlarining derivatsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida iqtisodiyot va savdo sohasiga oid terminlarning yasash usullari, affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya hamda o'zlashma terminlarning til tizimidagi o'rni o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy biznes terminologiyasining rivojlanishida ingliz tilining ta'siri va yangi terminlarning hosil bo'lish jarayonlari tahlil qilindi.*

**Kirish.** O'zbek tili biznes va tijorat terminalri rivojlanishi jihatidan tarixiy ahamiyatga ega so'zlar qatlami bir necha turga bo'linib, XX asr boshlarigacha bo'lgan shakllanish va rivojlanish bosqichida muayyan bir tizim holatiga kelgan. Bunday terminlardan ayrimlari hozirgacha qo'llanilayotgan tojik, arab, fors xalqlari, shuningdek, o'zbek hamda boshqa turkey xalqlarning iqtisodiy-madaniy aloqalari vositasida og'zaki hamda yozma tilning uzoq va murakkab rivojlanish mahsulidir.

**Adabiyotlar sharxi.** Biznes va tijorat terminologiyasi bugungi kunda terminologik lug'atlarning jadal rivojlanayotgan qatlamini tashkil etadi. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi ilk vujudga kelayotgan va shakllanayotgan vaqtlarda o'zbek tilining tadqiqi rus tili tasnif metodikasi asosida amalga oshirilgan. Bu jihatdan V.V.Reshetov, E.D.Polivanov, I.I.Zarubin, A.K.Borovkov, S.Ibragimovlarning monumental tadqiqotlari, shuningdek, A.G.G'ulomov, A.N.Kononov, K.Tursunov, I.U.Asfandiyorov, N.A.Baskakovlarning o'zbek lingvistikasining shakllanishi va rivojiga hissa qo'shgan tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

**Muhokama va natijalar.** Biznes va tijorat sohasi mutaxassislari tomonidan qo'llaniluvchi, kelib chiqishi nuqtai nazaridan lotin, italyan, fransuz, nemis, ingliz yoki rus tillariga mansub bo'lgan bazaviy tushuncha va terminlar buning yorqin dalilidir. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atida biznes va tijorat terminlarining ba'zi birlari quyidagi shaklda ifoda etiladi:

*-dotatsiya* (lot.dotatio-xadya, sovg'a, dotare-ta'minlamoq, jihozlamoq). Korxonalar, muassasa, tashkilot va h.k.ning ortiqcha xarajatlarini qoplash yoki boshqa ehtiyojlari uchun ularga davlat tomonidan yordam tariqasida, qaytarib bermaslik sharti bilan beriladigan pul, mablag'. Dotatsiya bermoq.

*Butun dunyoda qishloqqa dotatsiya berish mavjuddir. [Gazetadan]*

*-saldo* (ital. saldo-hisob-kitob qoldiq) 1. Buxgalteriya hisobida muayyan davr uchun pul tushumlari va qilingan xarajatlar o'rtasidagi ayirma. *Saldo har oyning birinchi sanasidagi holat bo'yicha aniqlanadi [UzME].*

2. Birja aloqa-munosabatlarida mijozning brokerlik firmasidan yoki, aksincha, brokerlik firmasining mijozidan qarzi.

3. Tashqi savdo munosabatlarida eksport va import qiymatlari o'rtasidagi farq, tafovut.

-balans (frans. balance tarozi, lot. bilanx-tarozining ikkita pallasi.) 1. Muvozanat, tenglik. *Osh tuzi organizmning suv balansi bilan bog'liq bo'lgan tuz almashinuvini ta'minlaydi.* [Fan va turmush].

2. Buxg. Doimo o'zgarishda bo'luvchi kirim-chiqim, daromad va buromadning o'zaro nisbati yoki muvozanatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar tizimi. Savdo balansi. Buxgalteriya balansi. Aholining daromadlari va xarajatlari balansi. Jamoa xo'jaligi balansi. *Ular jamoa xo'jaligi balansida turibdi.* [E.Samandarov, Daryosini yo'qotgan qirg'oq].

-buxgalter (nem.buch-kitob+halter-olib yuruvchi, tutib turuvchi.) Idora, muassasa, korxon va h.k.ning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi mutaxassis; hisobchi. *Umarjon Matqulov tutgan yo'l kolxoz buxgalteri Xasanboy Raximovga ham ma'qul tushdi* [Mushtum].

Bosh buxgalter: Barcha hisob-kitob ishlarini boshqaruvchi; buxgalterlar rahbari.

-byudjet (ingl. budget-hamyon, mablag') 1. iqt. Muayyan vaqt (yil) uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan va qonuniy tarzda tasdiqlangan daromadlar va harajatlar yig'indisi. Byudjet yili. Byudjet tizimi. Davlat byudjeti. Harbiy byudjet. 2. Shaxsiy kirim-chiqim majmui. *O'qish davrida mening oylik byudjetim uch ming so'mdan oshmas edi. To'g'ri, oilada oilaviy byudjetni boshqaradigan bir kishi bo'lishi kerak.*

Jahon biznes va tijorati va madaniyati integratsiya dunyoning turli tillari, jumladan o'zbek tilini yangi o'zlashmalar bilan boyitgan roman-german tillari: ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillar bilan yanada kengroq qiyosiy tahlil qilishni taqazo etmoqda. Ayni vaqtda o'zbek tili dunyo tillari orasida o'zining teng huquqli maqomiga ega bo'lib, Lars Joxanson tomonidan tuzilgan dunyo tillari ensiklopediyasi yoki Xendrik Boshotenning ishi buning yorqin dalilidir.

Ma'lumki biznes va tijorat sohasiga oid terminologiyaning xususiyatalari borasidagi tadqiqotlar sirasiga Ch.S.Abdullayeva, H.A.Dadabayev, Q.M.Musayev va boshqalarning ishlarini alohida qayd qilish mumkin.

O'zbek tili biznes va tijorat terminologiyasida amal qiluvchi terminlarning o'rganilishida tipologik contrast til tizimlarining derivatsion xususiyatlarini chog'ishtirish ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu albatta, lug'atlarni yaratish ehtiyojining dolzarbligi bilan izohlanadi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan ushbu leksik qatlamning faollashuvi O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning in'ikosidir. Tilning leksik sistemasidagi mazkur faol qatlam, globallashuv jarayonlarida mamlakat boshidan kechirayotgan iqtisodiy o'sishdan ham dalolat beradi.

Xorijlik hamkorlar bilan doimiy aloqalar, O'zbekistonning jahon biznes va tijoratiga integratsiyasi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy terminologiyaning tarqoqlashuviga olib keladi. Ayniqsa, so'nnggi o'n yillikda yangi so'zlarning faol kirib kelishi va joriy qilinishi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

O'zbek tilida terminlarning hosil bo'lishi va biznes va tijorat terminologik tizimining, xususan, biznes va tijorat sohasining shakllanishi rus va ingliz tilidagi termin hosil bo'lishidan farq qiluvchi o'ziga xoslikka ega. Bular:

1. Vositachi til-odatda rus tili orqali lotin, qadimgi grek, roman-german, rus tillaridan o'zlashgan yoki mustaqillik davridan keying to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan terminlar. Masalan: *import (import), inflation (inflyatsiya), option (opsiya), pension (pensiya), subvention (subventsia).* Rus, arab yoki fors tillaridan o'zlashgan terminlar: masalan: *finans, finansist, ekonomika, economist, dezinflyatsiya.*

2. Tarjima terminlar. Masalan ingliz tilidan o'zbek tiliga, bunda:

a) faqat o'zbek tiliga oid terminlar amal qiladi; *mahalliy byudjet, aylanma kassa, byudjetlarning darajasi, maxsus g'azna hisobraqami.*

b) o`zlashgan termin va biznes va tijoratga oid o`zbekcha termin birgalikda sinonim sifatida amal qiladi; *budget deficit-byudjet taqchilligi, finance-moliya, treasure account-g`azna hisob raqami*.

O`zlashgan tushuncha deganda o`zbek tiliga avvaldan arab yoki fors tillaridan o`zlashgan va ayni vaqtda retsipient tilning fonetik, grafik, morfologik xususiyatlariga moslashgan holda o`zbek tilining lug`at tizimidan barqaror o`rin egallagan terminlar nazarda tutiladi. *Property-mulk; price-narx; shaotage-kamomad*.

**Xulosa.** Bugungi kunda o`zbek biznes va tijorat terminologiyasi faol shakllanish, rivojlanish bosqichida bo`lgani bois, yetarli darajada tizimlashtirilmagan va tartibga solinmagan. Bu esa ba`zi tushunchalarning muqobili mavjud emasligi, sohaga doir lug`atlarning kam ekanligidan darak beradi. O`zlashgan tushunchalar ko`pincha o`zbek tilidagi muqobili bilan mos kelmaydi. Yevropa tillaridan terminlar tarjimasini ko`pincha so`z birikma shaklida, ya`ni so`zni izohlash orqali amalga oshiriladi. Bunday ko`p tarkibli birliklar bir tarkibli birliklar singari o`zbek tilida faol qo`llaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. – Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
3. Nurmonov A. O`zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O`qituvchi, 2002.
4. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma`naviyat, 2010.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006.
6. Danilenko V. P. Rus terminologiyasi nazariyasi. – Moskva: Nauka, 1977.
7. Reformatskiy A. A. Terminologiya masalalari. – Moskva, 1961.
8. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge University Press, 2003.
9. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 1999.
10. O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 jildlik. – Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.

INNOVATIVE  
ACADEMY